

O'ZBEKISTONDA ZARDO'ZLIK SAN'ATINI RIVOJLANISHI TARIXI

Sobirova Shoxista

Andijon viloyati Andijon tumani 3-son politexnikumi maxsus fan o'qituvchisi.

Annotatsiya: O'zbek xalq amaliy bezak san'atida zardo'zlik qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. U forscha “zar” (tilla), “do'zi” (tikmoq) so'zini anglatadi. Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgan. Zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan.

Kalit so'zlar: Zardo'zlik san'ati, tarix, zarbob kiyimlar, O'rta Osiyo, madaniyat, zargarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorlikorligi, kashtadozlik.

Abstract: In Uzbek folk decorative art, goldsmithing is considered one of the ancient types. It means the Persian word “zar” (gold) and “do'zi” (to embroider). The art of goldsmithing has a long history. The homeland of goldsmithing is Babylon, which belonged to the Roman Empire. It is famous all over the world for its colorful embroidery, which is made of gold, silk and woolen threads.

Keywords: Goldsmithing, history, decorative clothing, Central Asia, culture, jewelry, pottery, wood carving, embroidery.

KIRISH

Vizantiyada zardo'zlik kiyimlarini faqat imperator ayollari kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyati hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo'zlik san'ati Eron podshohligi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligi XV-XVIII asrlarda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi.

O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan zarbob kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947-yilda Toshkent viloyatida o'tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I-II asrlarga tegishli zar tikilgan kiyimlar topilgan.

Buxoro zardo'zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining extiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqiriladi. U payitda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgin amirga va unung qon-qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim hatto eng katta amoldorlardan birortasi ushbu qimmatboho kiyimlarni o'ziga buyurtirishga haqqi yo'q edi. Ular bukiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarining zardo'z kiyimlarini esa faqatgina badavlat xonadon a'zolari kiyishga haqli edilar. Zar va kumush iplar bilanerkaklar to'nlari, salla, do'ppi, poyabzallar, ayollarning ko'ylaklari, kamzur, romol, etiklar tikilgan. 1915-yili Said Olimxon davrida Buhoroda Qushbegi

O'rganiyaning uyida podishoxlik ustaxonasi tashkil etilgan . Ustaxona qushbegi ixtiyorida bo'lgan unda yigirmadan ortiq ustalar ishlagan. Ayni shu davirda zardo'zlik san'atining eng gullagan davri bo'lgan. 1930- yilda O'zbekistonda Rassomlar uyushmasi ,unga qoshida esa zar'do'zlik arteli tashkil etilgan. Keginchalik artel kengaytirilib korxonaga aylantirilgan. Mohir zardo'z bo'lish uchun quydagilarni bilish shart bo'lgan: rasm solish va naqish chizishni, naqishlarni tushirish va qirqishni, qirqilgan naqishlarni ip bilan tikishni va bezatish. Zardo'zlikda uchraydigan naqishlarni o'zbek amaliy san'atining devoriy naqsh gul bosma, zargarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorlikorligi, kashtadozlik va boshqa ko'plab turlarini uchratishimiz mumkun. Xalq amaliy bezak san'atining qaysi turi bo'lmasin uning zaminida turli naqishlar elementlardan tuzulgan kompozitsiyalarni tuzush uchun avvalo ularda ishlatiladigan naqsh elementlariva ularni hosil qilish yo'llarini bilish zarur bo'ladi. Inson xotirasida qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, shunchalik rang -barang kompozitsiyalarni tuzushga imkoniyat beradi Shuni aytib o'tish joizki, har bir naqsh elementi xalqimiz orasida qadimdan ma'lum bir ma'noga ega bo'lib o'z joyida qollanishga harakat qilingan. Aholi o'z orzu-istaklarini, niyyatlarini amalga oshirishni ramzlarga bog'lab o'z liboslarini va uylarini bezatganlar. Masalan, islimiy naqishlardan, Bodom-baxt-iqbol, Barg-bahoriy uyg'onish, Novda- boylik va farovonlik, Gul- go'zallik , Olma-muhabbat, Anoz-ezgulik, to'qchilik, Qalampir-yomon ko'zdan asrash ma'nolarin anglatgan.

Zardo'zi naqishlar mahaliy va yevropadan keltirilgan qizil, siyoh rang yashil va ko'k rangdagi baxmallarga ,ipak atlas,movut, ingichka paxta tolail matolarga ,shuningdek teri ustida tikilgan. Yoshbolalar va ayollar liboslariga ko'proq qizil rangli matolar ishlatilgan. Bu naqishlar orqali ayollar peshonabandlar, peshkurtalari, bosh kiyimlar , nimchalar, lozimlar,kavushlari, erkak va bolalar etiklari,qo'nji kavushlar, choponlar, belbog'lar bezatilgan.

Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob- uskunalar unchalik ko'p bo'lmasada ular o'ziga xos tuzilishga ega . Zardo'zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho'p bo'lib u ikki qismdan iborat: chamberak va xorak. "Korcho'p" forischa so'z bo'lib "kor"- ish , "cho'p" -taxta, yog'och degan ma'nolarni anglatadi.

Zardo'zlikda korcho'pdan so'ng turadigan asbobdan biri – patila hisoblanadi. Patila -to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichi kovlanib , qo'rg'oshin quyub vazmlashtirilgan uzunligi 18-20 sm li oddiy yog'och tayoqcha.

Patil azar iplarni zich va bir tekis qilib o'rashda ishlatiladi. Bu tikayotgan zardo'zning bir tekis chiqishiga yordam bergan, zar ipning chalishib , isrof bo'lishiga yo'l qo'yilmagan.

Zardo'zlik san'ati ikki turga bo'linadi. Ya'ni "Zardo'zi guldo'zi" , "Zardo'zi zamondo'zi" tikish turlari.

Zardo'zi guldo'zi tikish turi. Bu turga kiruvchi usullarning umumiy xususiyati shundaki ,charim ,karton,qalin qog'ozdan qirqilgan naqishlar-gullar usti turlicha holatdagi zar iplar bilan butunlay qoplab tikiladi. Guldo'zi so'zi farisichadan “gul” -gul , “do'zi” – tikmoq , ya'ni gul tikmoq ma'nosini anglatadi.

Zardo'zi zamondo'zi tikish turi. Zamondo'zi forischa “zamin”- yer osti ,tagi , “do'zi” -tikmoq degan manolarni anglatadi.So'zning ma'nosidan ko'rinib turibdiki , zardo'z tikish usullari naqishlar tagini yoppasiga zar iplar to'ldirib tikish va turi naqishlar hosil qilish va vazifasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – urttaraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017-yil
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. S.Sh. Tashpulatova , M.K.Ramazonova, G.G'.Alimova , Sh.G.Jo'raeva Keng assortimentdagi kiyimlarni loyixalash, modellashtirish va badiiy bezash . Faylasuflar nashiryoti Toshkent-2013.
4. D.Jabborova. Zardo'zlik texnologiyasi. -Toshkent G'.G'ulom nomidagi nashiryot 2004 yil.